



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**

Google Scholar



**ISSN**

INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
<b>Хо'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ .....	129
<b>Норкулов Хабибулло</b>	
<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV .....	135
<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ .....	147
<b>Джуманов А.А.</b>	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
<b>Джуманов А.А.</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI.....	192
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI .....	198
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b> <b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li</b> <b>Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li</b>	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	204
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	210
<b>Курбанова Дилфуза Махсудовна</b>	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	217
<b>Karimova Feruza Xamidullayevna</b>	
PAHTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
<b>Ishniyazov Zoxid Normamatovich</b>	



# PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI

Ishniyazov Zoxid Normamatovich  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agroiqtisodiy islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi sohasida muhim ijobiy natijalarga erishildi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoat korxonalarini uchun xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabi mahalliy ishlab chiqarish hisobidan qondirilmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, paxtachilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mazkur maqolaning maqsadi bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda paxtachilikda g'o'za navlarini hududlar kesimida joylashtirish tizimini raqamlashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** paxtachilik, agroteknologiyalar, raqamlashtirish, g'o'za navlari, hududiy joylashtirish, iqtisodiy samaradorlik, bozor munosabatlari, qishloq xo'jaligi.

**Аннотация.** В результате проводимых агроэкономических реформ в стране достигнуты значительные положительные результаты в развитии сельского хозяйства. Спрос населения на продовольственную продукцию, а также потребности промышленных предприятий в сырье в значительной степени удовлетворяются за счёт отечественного производства. По результатам многочисленных исследований хлопководство занимает одно из ведущих мест в сельскохозяйственном производстве. Целью данной статьи является разработка направлений цифровизации системы размещения сортов хлопчатника по регионам в условиях развития рыночных отношений.

**Ключевые слова:** хлопководство, агротехнологии, цифровизация, сорта хлопчатника, региональное размещение, экономическая эффективность, рыночные отношения, сельское хозяйство.

**Abstract.** As a result of the agro-economic reforms, significant positive outcomes have been achieved in the agricultural sector. The demand of the population for food products and the needs of industrial enterprises for raw materials are increasingly being met through domestic production. According to numerous studies, cotton farming occupies a leading position in agricultural production. The purpose of this article is to develop directions for the digitization of the cotton variety placement system across regions under the conditions of developing market relations.

**Keywords:** cotton farming, agrotechnologies, digitization, cotton varieties, regional placement, economic efficiency, market relations, agriculture.

## KIRISH

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi aholi tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoat korxonalarining esa xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini uzluksiz qondirishdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishishda o'simlikchilikning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan paxtachilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Paxtachilik tarmog'ida mahsulot hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilash ko'p jihatdan g'o'za navlarining biologik xususiyatlariga bog'liq. Paxta maydonlarida amalga oshiriladigan agrotekhnika tadbirlarining samaradorligi hamda hosildorlik ko'rsatkichlari g'o'za navlarining genetik salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday yangi yaratilgan, yuqori xo'jalik va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega nav o'z salohiyatini faqat ilmiy asoslangan agrotekhnika tadbirlar hamda zamonaviy agrotekhnologiyalar joriy etilgan sharoitdagina to'liq namoyon eta oladi.



Hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos, bozor talablariga javob beradigan va sifatli mahsulot yetishtirish salohiyatiga ega navlardan foydalanish, shuningdek, sifatli urug'liklarni qo'llash hamda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bois paxtachilikning istiqbolli rivojlanishi zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

Paxtachilikda yuqori hosil olish, tola sifatini yaxshilash va mahsulot tannarxini pasaytirish tejamkor hamda samarali agrotexnologiyalarni qo'llamasdan turib amalga oshirilmaydi. Bozorning paxtachilik mahsulotlariga qo'yadigan talablari hamda paxtachilik hududlarida kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, jumladan, suv tanqisligi, kuzgi sovuqlarning erta kuzatilishi va yog'in-sochinlar muddatining o'zgarishi g'o'za navlarini yaratish va ularni parvarishlash agrotexnikasini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hamda ekologik muvozanatni ta'minlash masalalari ko'plab olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, Ishniyazov Z. (2021) o'z ilmiy izlanishlarida paxtachilik sohasi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda paxta xom ashyosini yetishtirishda resurslardan oqilona foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini asoslab bergan. Muallifning 2022–2025-yillarda olib borgan tadqiqotlarida paxtachilik tarmog'ida yuzaga keladigan ekologik muammolar, ularning aholi turmush darajasi va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri atroflicha tahlil qilingan.

Shuningdek, ilmiy ishlarda paxtachilikda navlarni joylashtirish tizimini raqamlashtirish zarurati, ekologik xavflarni kamaytirish hamda agrotexnologiyalarni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallifning xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarida paxtachilikni rivojlantirish jarayonida ekologik muammolarni boshqarish, klaster tizimi sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash va zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llashning iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlanmalar ushbu tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda paxtachilikda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va ekologik muvozanatni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida paxtachilik tarmog'ida qo'llanilayotgan agrotexnologiyalar, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda ekologik ta'siri o'rganildi. Shuningdek, suv tejavchi texnologiyalar, tuproqqa ishlov berish usullari va biologik himoya tadbirlarining afzalliklari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida yangi agrotexnologiyalarni ekologik ekspertizadan o'tkazish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda paxtachilik sohasida dolzarb ahamiyat kasb etayotgan yangi agrotexnologiyalar qatoriga sug'orish tizimini takomillashtirish, tuproqqa ishlov berish usullarini modernizatsiya qilish, g'o'zani oziqlantirish tizimini optimallashtirish, biologik himoya usullarini keng qo'llash hamda vegetatsiya davridagi agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish kiradi. Xususan, suv resurslari tanqisligining ortib borishi tomchilatib sug'orish, yomg'irilatib sug'orish, mulchalab sug'orish, sizot suvlari chuqurligiga mos tabaqalashtirilgan sug'orish, egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish va pushta oralatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, paxta maydonlarida tuproqqa minimal ishlov berish, hududlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda shudgorlash chuqurligini belgilash hamda plyonka ostiga chigit ekish orqali yerga ishlov berish sonini qisqartirish imkoniyatlari kengaymoqda.

G'o'zani oziqlantirish tizimida mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish asosida mineral o'g'itlar sarfini kamaytirish, mineral o'g'itlar nisbatini (NPK) tabaqalashtirilgan holda belgilash va siderat ekinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, begona o'tlar, g'o'za kasalliklari va zararkunandalarga qarshi kurashishda biologik usullarning ulushini oshirish hamda g'o'za bargini to'kish jarayonida ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. G'o'za vegetatsiyasi davrida hosilni qisqa muddatlarda yig'ib olish, barg to'kish va chilpish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Paxta yetishtirishda zamonaviy agrotexnik uslublarni joriy etish paxta hosildorligi va tola chiqimini oshirish, tola sifatini yaxshilash, suv, moddiy-texnik hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali paxtachilik



tarmog'ining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, agrotexnologiyalarni rivojlantirish jarayonida ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarbligi ortib borayotgan bir sharoitda organik paxta yetishtirishni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Paxtachilikda ekologik agrotexnik uslublardan foydalanish murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu, avvalo, paxtachilikning iqtisodiyotdagi muhim o'rnini hamda ekologik muhofaza tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Mazkur masalani samarali hal etish uchun xususiy mulkchilik va erkin tadbirkorlik tamoyillari asosida fermer xo'jaliklarini ekologik jihatdan xavfsiz agrotexnologiyalarni qo'llashga rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, atrof-muhit ifloslanishi jarayonlarini davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilishning samarali hamda sodda mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish bilan bog'liq ekologik muammolarning oldini olish va ularni kamaytirish maqsadida yangi agrotexnik uslublarning ekologik xavfsizlik darajasini baholashda paxta maydonlari tuprog'ining tarkibi, unumdorligi va meliorativ holati, suv ta'minoti darajasi, sizot suvlari chuqurligi, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, resurslar sarfining qoplanish darajasi, hududdagi aholi zichligi, bandlikka ta'siri, moddiy-texnik ta'minot holati, almashlab ekish tizimining rivojlanganlik darajasi hamda mavjud agrotexnik tadbirlarning ekologik muvozanatga ta'siri kabi omillarni kompleks ravishda hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda paxta yetishtirish eksport salohiyatini mustahkamlash, sanoat tarmoqlarini sifatli xom ashyo bilan ta'minlash hamda qishloq joylarda aholi bandligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli paxtachilik tarmog'ini izchil rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish va ekologik muvozanatni ta'minlash davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ayni paytda yangi agrotexnologiyalar paxta xom ashyosining tannarxini pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilishi lozim. Shu sababli paxtachilik sohasini rivojlantirish hamda hududlarda ekologik muvozanatni saqlash masalalari faqatgina paxtachilik tarmog'i faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarni ham ekologik jihatdan takomillashtirishni talab etadi.

Jumladan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sanoatini rivojlantirish orqali paxtachilik uchun zamonaviy texnika, ehtiyot qismlar va traktorlar uchun ishchi organlar ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, kimyo sanoatida atrof-muhitga nisbatan xavfsizroq mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, defoliantlar hamda biologik parchalanadigan plyonkalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, suvni tejovchi texnik vositalarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy etish yangi agrotexnologiyalarni qo'llash uchun zarur resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada paxtachilik tarmog'ining iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanib, ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi omillar kuchayadi.

Paxta ekin maydonlarida tuproq ekologiyasini asrash maqsadida tuproqqa ishlov berish hajmini optimallashtirish muhim hisoblanadi. Bunda shudgorlash, chizellash, yer tekislash hamda g'o'za qator oralariga ishlov berish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlar sonini maqbullashtirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, qator oralig'iga ishlov berish sonini kamaytirish bilan bir qatorda tuproqni ortiqcha zichlashtiruvchi texnik vositalardan foydalanishni qisqartirish ham maqsadga muvofiqdir.

Paxta maydonlari tuprog'ining sho'rlanish darajasini kamaytirish maqsadida sho'r yuvish va yer osti suvlari sathini me'yoralashtirishga qaratilgan zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyalar paxta hosildorligini oshirish bilan birga tuproqning mexanik tarkibini saqlashga, sho'rlanish darajasini kamaytirishga hamda qo'llanilayotgan kimyoviy vositalarning atrof-muhitga ta'sirini pasaytirishga xizmat qiladi. Bunda almashlab ekish tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuqori natijalar beradi.

Ta'kidlanganidek, paxtachilik tarmog'ida yuzaga keladigan ekologik jarayonlar ko'p jihatdan qo'llanilayotgan agrotexnik tadbirlar va moddiy-texnik resurslardan foydalanish darajasi bilan bog'liq. Shu bois amalda qo'llanilayotgan hamda yangidan joriy etilayotgan agrotexnologiyalar ekologik ekspertizadan o'tkazilishi, ularning ekologik ta'siri turi, ko'lami va ehtimoliy oqibatlari ilmiy asosda baholanishi lozim. Olingan ekspertiza natijalari asosida tegishli xulosalar ishlab chiqilishi, ekologik xavflarning oldini olish choralarini belgilash va zarur hollarda ayrim agrotexnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tartibni amaliyotga samarali joriy etish uchun respublikada tegishli xizmatlar, infratuzilmalar hamda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish zarur. Ushbu mexanizmni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etishda ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Paxtachilikda joriy etiladigan yangi agrotexnologiyalarga ekologik baho berish (ekspertiza qilish) mexanizmi<sup>1</sup>

Paxtachilik tarmog'ida qo'llanilayotgan, ayniqsa yangidan joriy etilayotgan agrotexnik tadbirlarning atrof-muhitga ta'sir darajasini baholashda, avvalo, mazkur agrotexnik qoidalar va texnologiyalar to'g'risida to'liq ma'lumotlar yig'ilishi lozim. Shundan so'ng ekologik ekspertizaning maqsadi, vazifalari hamda amalga oshirish yo'nalishlari aniq belgilab olinadi. Bunda ekologik ekspertizaning asosiy vazifalari sifatida joriy etilayotgan agrotexnik uslublarning ekologik ta'sirini baholash, ehtimoliy salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha choratadbirlarni ishlab chiqish hamda zarur hollarda ularni amaliyotga joriy etish yuzasidan asoslangan xulosalar tayyorlash nazarda tutiladi.

Shuningdek, mavjud sharoit va aniq vaziyatlarni hisobga olgan holda ekspertiza oldiga qo'shimcha vazifalar ham qo'yilishi mumkin. Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, agrotexnologiyalarni ekologik ekspertizadan o'tkazish uslubiyoti ishlab chiqilishi talab etiladi. Mazkur uslubiyot qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish imkonini berishi, mavjud omillarni har tomonlama hisobga olishi hamda amaliyotda qo'llash uchun qulay

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



va tushunarli bo'lishi lozim. Shu tariqa agrotexnologiyalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash va paxtachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan qarorlarni qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Avvalo, yangi agrotexnik usullarni baholash jarayonida nafaqat joriy etilishi rejalashtirilayotgan texnologiyalarni, balki amaliyotda uzoq yillardan buyon qo'llanib kelinayotgan mavjud agrotexnik usullarni ham kompleks tarzda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, yangi agrotexnologiyalarni amalda mavjud bo'lgan o'xshash usullar bilan taqqoslagan holda ekologik ekspertizadan o'tkazish hamda mustaqil va taqqoslama baholash natijalariga asoslangan ekspertiza xulosalarini tayyorlash zarur.

Ekologik ekspertiza natijalari asosida agrotexnik usullarning atrof-muhitga ta'siri har tomonlama baholanib, ulardan foydalanish yoki foydalanmaslik yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. Zarur hollarda esa vakolatli vazirliklararo ishchi guruhlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ekspertiza guruhlari tomonidan tayyorlanadigan xulosalarning huquqiy kuchga ega bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Paxtachilik tarmog'ida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish jarayonlarini jadallashtirish, ayniqsa tomchilatib sug'orish hamda resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash ko'lamini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Agrotexnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan avval ularning ekologik va iqtisodiy samaradorligini kompleks ekspertiza asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, fermer xo'jaliklarini ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni qo'llashga rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, tuproq unumdorligini saqlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda biologik himoya usullarini keng joriy etish orqali ekologik muvozanatni mustahkamlash mumkin. Mazkur chora-tadbirlar paxtachilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishniyazov Z. Paxtachilik sohasi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari // "Agroiqtisodiyot" ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnali. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 26–28.
2. Ishniyazov Z. Paxta xom ashyosini yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'nalishlari // "Agroiqtisodiyot" ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnali. – Toshkent, 2021. – № 3–4. – B. 93–95.
3. Ishniyazov Z. Paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish jarayonida paydo bo'ladigan ekologik muammolarning aholi turmush darajasiga iqtisodiy ta'siri // "Agroiqtisodiyot". – Toshkent, 2022. – Maxsus son. – B. 132.
4. Ishniyazov Z. Paxtachilik tarmog'ida resurslardan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan ekologik muammolarning manbalari // "Agroiqtisodiyot". – Toshkent, 2022. – № 4. – B. 100.
5. Ishniyazov Z. Paxtachilikda navlarni joylashtirish tizimini raqamlashtirishning obyektiv zarurati // ToshDAU ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – 18-may 2021-yil. – B. 635–638.
6. Ishniyazov Z. Paxtachilik sohasini rivojlantirishda ekologik muammolar paydo bo'lishi xususida // Toshkent moliya instituti ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – 2022. – B. 531.
7. Ishniyazov Z. Qishloq xo'jaligi korxonalarida paxta yetishtirishda kelib chiqadigan ekologik muammolar xususida // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2023. – B. 192–194.
8. Ishniyazov Z. Paxtachilikda ekologik muammolar paydo bo'lishi manbalari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini // "SCIENCE AND INNOVATION" xalqaro ilmiy jurnali. – 28-noyabr 2025-yil. – B. 51–54. – DOI: 10.5281/zenodo.18033324.
9. Ishniyazov Z. On the Environmental Problems Arising in the Development of the Cotton Industry // American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. – 14-may 2025-yil. – ISSN 2771-2559. – DOI: 10.37547/ajahi/Volume05Issue05-03.
10. Ishniyazov Z. Regarding Environmental Problems Arising in the Development of the Cotton Growing Industry in Clusters // World Bulletin of Social Sciences. – Scholar Express Journals, Berlin, Germany, July 2023. – Impact Factor: 7.545.
11. Ishniyazov Z. Economic Mechanism for Implementing Modern Agrotechnology in Cotton Farming and Ensuring Ecological Balance // Models and Methods in Modern Science: Scientific Online Conference Proceedings. – 2025. – P. 145–147. – DOI: 10.5281/zenodo.14937047.
12. Ishniyazov Z. Paxtachilik tarmog'ida ekologik muammolarni oldini olish tadbirlarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari // Onlayn konferensiya materiallari. – 2025. – B. 39–41. – DOI: 10.5281/zenodo.14936954.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>